

**TASVIRIY SAN'ATDA RANGTASVIR TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASINING TA'LIM
JARAYONIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI**

Hasanboyeva Ozoda Haydarali qizi

Namangan Davlat Universiteti, "San'atshunoslik" fakulteti

Amaliy san'at va rangtasvir kafedrası, II bosqich talabasi

ozodahasanboyeva2106@gmail.com

Telefon raqami: +998939252106

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'atda rang tasvir texnika va texnologiyasining ta'lim jarayonlarda ranglardan foydalanish usullari keng yoritildi.*

Kalit so'zlar: *Issak Nyuton, Gyote, Beruniy, imtensivlik, ranglar, uyg'unlik, sa'atshunoslik.*

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida badiiy ta'lim sohasida pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlashda milliy o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, o'quv rejalarida amaliy mashg'ulotlar salmog'ini oshirishga keng e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-sonli qarorining qabul qilinishi mazkur masalaga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarining kasbiy kompensatsiyalarini rivojlantirish metodikasini rivojlantirish fanlarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirishni, talabalarda kasbiy-ijodiy sifatlarni rivojlantirish tizimini yaratishni va uslubiy ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi. Tasviriy san'atni o'qitishda rangtasvir va rangtasvir texnikasining o'рни beqiyosdir. Ranglar bo'yicha ko'pgina olimlar izlarishlar olib borganlar, misol uchun mashhur fizik olim Issak Nyuton oq yorug'likni ko'p rangli ekanligini isbotlagan, ya'ni spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug'ligini derazadagi qora pardaning ingichka tirqishidan o'tkazgan va yo'lga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada har xil ranglardan (qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsha) iborat keng yorug'lik dastasi ko'ringan. San'atshunos olimlardan biri I.V.Gyoteni ko'proq ranglarning inson organizmiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote «Ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratib, iliq (sarg'ish qizil) ranglar kishida yuqori kayfiyat tuyg'usini, sovuq (havo rang, yashil) ranglar ma'yuslik, g'amginlik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan. Umuman olganda, Yevropada oq rang pokizalik, shodiyona, aqllilik, sariq rang esa g'amginlik yoki shodiyonalik hisoblangan deb ta'rif bergan. Ko'k quyug soya kabi jiddiy va yetuklik, qora - alam, qarilik, noma'lumlik sifatida qaralgan. Qizil ta'sirchanlik, yoshlik va insoniylik rangidek qabul qilingan.

Rang muammolarini o'rganishga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo'lgan Tokiodagi Rangshunoslik institutida inson qalbiga ta'sir etuvchi ranglar chuqur o'rganiladi. Hatto, rang asoslari fan sifatida Yaponiya maktablari dasturiga ham kiritilgan. Sharqda ham qadimdan ranglarga katta e'tibor berilgan. Jumladan, A.R. Beruniy o'zining «Kitob al-javohir fi ma'rifat al javohir» asarida turli minerallar va metallarning 200 dan ortiq rang nomlari, tusini mohirona tasvirlagan. Shuningdek, o'z davrida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar rang nomlaridan unumli foydalanishgan. Atrofimizni o'rab turgan tabiat nihoyatda go'zal va jozibali. Tabiiy yorug'lik manbai quyosh nurlari ostida har bir narsa o'zining muayyan rangiga ega bo'lib, yorqin tularida ko'rinadi. Quyoshning oq yorug'ligi aslida murakkab bo'lib, olamni turfa go'zalligi, ya'ni bahorgi maysalar va yaproqlarning yashilligi, osmonning moviyligi, gullarning rang-barangligi hammasi shunga bog'liq.

Olimlar tomonidan aniqlangan yettita rang spektr ranglari deb atalib va rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasida qizil, qizg'ish zarg'aldoq (nor-noranji), zarg'aldoq, sarg'ish zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, yashil, yashiltob zangori, havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, qirmizi ranglaming har xil tulari ko'rinadi. Ranglar doirasida rang tulari juda ko'p bo'lishi mumkin. Ranglarni doira bo'ylab joylanish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab - qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havorang, zangori, yashil, ko'klar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Bo'yoqlaming qo'shilishi bilan spektral ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Asosiy ranglar - qizil, sariq va ko'k. Bu rangli bo'yoqlar qo'shilishidan qora rangli bo'yoq hosil bo'ladi. Sariq va ko'k bo'yoqlarni arafashtirsak yashil rangdagi bo'yoq hosil bo'ladi. Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi (qo'shimcha) hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq va ko'k, havorang, sarg'ish yashil va binafshalar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan (oq, kulrang, qoramtir, qora, to'q qora) ranglar va och-to'qligi tufayli bir-biridan ajraladigan ranglar rassomlikda axromatik (rangsiz) deb yuritiladi. Xromatik ranglar bir-biridan och-to'qligi, rangi bilan ham farqlanadi. Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularning birini qizil, ikkinchisi ko'k, uchinchisi binafsha deb atalishiga asos bo'lgan belgisi rang tusi deyiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak nursizlanadi, bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida sof bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki intensivligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini tozaligini tushunish kerak.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida o'qitiladigan fanlar mazmunini modernizatsiyalashni o'quv dasturlari, darsliklarni hozirgi zamon fanlari, texnikasi, texnologiyalari hamda ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashtirish jarayonlari dadil qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Ana shu maqsadda

DTS ni takomillashtirish; o'quv reja, dasturlari, va darsliklarning egiluvchanlik va moslashuvchilik xususiyatlarini kuchaytirish; ularni ko'p variantligini ta'minlash; ta'lim jarayonida xar bir o'quvchi va talabani o'ziga xos qobiliyat va iste'dodlarini hisobga olish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Barcha bosqichlar qatorida tasviriy san'at, amaliy san'at, me'morchilik, haykaltaroshlik kabi san'at namunalarini ta'lim tarbiya jarayoni bilan imlashuv jihatlarini to'g'ri anglash tushuntira olish kabi sifatlar bo'yicha anchagina vazifalar turganini bilishimiz shart.

O'zbekistonda Rang tasvir san'ati qadimdan mavjud bo'lgan. Uning ilk na'munalari ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi (qarang Ibtidoiy san'at, Zarautsoy rasmlari). Miloddan avvalgi 1ming yillikning oxiri va milodiy 1ming yillik boshlarida Rang tasvir o'zining gullagan davrini boshidan kechirgan (Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa, Tuproqqal'a va boshqalardagi devoriy rasmlar). Bu davrlar Rangtasvir yassi bezak yo'nalishida mahalliy (lokal) ranglarda bajarilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida monumental Rang tasvir (devoriy rassomlik, mozaika) bilan birga miniatyura san'ati rivojlangan. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqalarning asarlari dunyoga keldi. XIX-asr o'rtalaridan boshlab Turkistonda dastgoh san'ati shakllana boshladi va XX-asrda o'zbek milliy Rang tasvir maktabi yaratildi. Rang tasvirning hamma tur va janrlarida asarlar yaratildi, miniatyura, vitraj san'ati qayta tiklandi. Bugungi kunda o'zbek Rang tasvir san'ati jahon hamjamiyati bilan bir qatorda rivojlanmoqda, uning g'oyaviy plastik rivoji ustida rassomlar izlanmoqda, mehnat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turg'unboyev K., Rizayev A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar». Andijon
2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbonova "Tasviriy san'at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" O'quv uslubiy qo'llanma.
3. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 261-267.
4. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 1066-1070.
5. Boltaboyevich, B. B., & Shokirjonugli, S. M. (2020). Formation of creative competences of the fine art future teachers describing geometrical forms (on sample of pencil drawing lessons). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1996-2001.
6. Байметов, Б., & Шарипжонов, М. (2020). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА ТАЛАБАЛАР ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ

БЕРИШ МЕТОДИКАСИ (ҚАЛАМТАСВИР МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (4), 357-363.

7. Байметов, Б. Б., & Шарипжонов, М. Ш. (2020). ТАСВИРИЙ САНЪАТДАН МАЛАКАЛИ ПЕДАГОГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИНГ УЙҒУНЛИГИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 3).

8. Sharipjonov, M. S. O. G. L. (2021). OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI. Science and Education, 2(2), 435-443.

9. Шарипжонов, М. Ш. (2020). Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчисининг касбий маҳоратларини такомиллаштиришда амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. Молодой ученый, (43), 351-353.

10. Шарипжонов, М., & Икромов, М. Д. (2018). TASVIRIY SAN'ATDA ANIMALIZM JANRI. Научное знание современности, (5), 94-96.

11. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.